



PAREMEOLOGIK BIRLIKLAR FIKRNI TA'SIRCHAN VA TEZKOR YETKAZUVCHI VOSITA

Ataboyeva Xojarbibi

O'zJOKU 2-kurs magistranti.

Annotatsiya: Ushbu tezisda paremeologik birliklarning OAV lari materiallaridagi ahamiyati va gazeta jurnallarda chop etilayotgan maqolalar tarkibida qanday holatlarda qo'llanilishi haqida fikr yuritiladi. O'zbeklardan birinchi bo'lib kim iboralarni o'rganib, ilmiy ishlar olib borganligini hamda bir nechta iboralarning qo'llanilishi, ularning ma'nolari, gapda ifodalab kelgan holatga ta'sirini bilib olamiz.

Kalit so'zlar: paremeologik birliklar, frazema, frazeologizm.

Ma'lumki, OAV materiallarida maxsus leksika asosan yozma matnning fikriy mundarujasiga ta'sirchan bo'yoq berish maqsadida qo'llaniladi. Ayniqsa, xalqona maqol va matal, ibora hikmatli so'zlarning kontekstda berilishi fikrni dalillaydi, muallifning shaxsiy munosabatini hamda muxtasarlikni obrazli tarzda ifodalaydi. Maqol, matal va aforizm, iboralar, hikmatli so'zlar tizimi jahon tilshunosligida nomlanishi "paremiologik birliklar" inson tafakkurining eng sara durdonalari sanaladi. Bunday birliklar "koinot qonuniyatlarini kuzatish, turmush tajribalariga suyanish asosida chiqarilgan xulosalarni ifodalovchi, xalqning jamiyatga munosabati, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashtirgan, avloddan-avlodga og'zaki formada ko'chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo'lgan...".

Paremeologik birliklar obrazlilik va emotsional-ekspressivlikni yuzaga keltiruvchi eng muhim vositalardan biridir. Ular badiiy, siyosiy va publitsistik matnlarning ifodaviy ta'sirchanligini oshirish uchun xizmat qiladi. Shu boisdan paremeologiya tilshunoslikning alohida sohasi hisoblangan uslubshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Paremeologiyaning bir qismi bo'lgan



Frazeologizmlar ixcham, ma'no jihatdan salmoqli til birligi bo'lib, davr ruhiga mos keladi, chunki milliy qadriyatlar, urf-odatlar rivoj topib borayotgan davrda so'zlovchidan har tomonlama ixcham, asosli, obrazli va ta'sirchan shaklda ifodalashni taqozo etadi.

O'zbek tilshunosligining frazeologiya sohasi dastlab XX asrning 50-yillarida o'rganila boshlangan. . O'zbek tilshunosligida frazeologiya asoschisi filologiya fanlari doktori professor Sh.Rahmatullayev hisoblanadi. U birinchilardan bo'lib, o'zbek tilshunosligining frazeologiya sohasini tadqiq eta boshlagan va natijada uning "Hozirgi o'zbek tilida obrazli fe'lli frazeologik birliklarning asosiy grammatik xususiyatlari" mavzuidagi monografik tadqiqoti maydonga kelib, uni 1952-yili muvaffaqiyatli himoya qilgan . Keyinchalik esa Sh. Rahmatullaev o'zining mazkur sohadagi ilmiy-tadqiqot ishini davom ettirib, 1966-yili "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari" mavzuida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Sh.Rahmatullayev adabiyotlarda ushbu til birligi frazeologizm, frazeologik birlik kabi terminlar bilan atalishini misol qilgan holda hamda leksema, morfema terminlariga monand ravishda frazema deb atalishini ma'qul ko'rgan. Frazemalar o'rganiladigan sohani esa frazemika deb nomlagan. Paremeologik birliklarning eng ko'p qo'llanadigan qismi iboralardir. Iboralar - tilimizning lug'at tarkibini tashkil etuvchi birliklardan biridir. Ular ikki va undan ortiq so'zning ko'chgan ma'nolari asosida tarkib topgan lug'aviy birlik bo'lib xuddi so'z kabi lug'aviy ma'noni anglatadi. Masalan, xamirdan qil sug'urganday iborasi, "osonlik bilan", "qiyinchiliksiz " ma'nosini, ko'ngil bermoq iborasi "sevmoq" ma'nosini, qo'y og'zidan cho'p olmagan iborasi "yuvosh" ma'nosini bildiradi. Xuddi so'z kabi yaxlit bir ma'noni anglatadigan bunday til birligi frazeologik birlik yoki frazeologizm deyiladi¹.

¹ "O'zbek tilidagi iboralar tizimini o'rganishning nazariy muammolari" maqolasi S.J.Xamroxonova



tuzilishiga ko'ra ya'ni birdan ortiq so'zdan tashkil topishi bilan so'z birikmasi yoki gapga o'xshab ketsa ham, nutq birligi sanalgan bunday birliklardan tamoman farq qiladi va lug'aviy birlik sifatida ko'p jihatdan so'zlarga yaqin turadi. So'zlarga xos bo'lgan juda ko'p xususiyatlar iboralarga ham xosdir. Ibora so'z birikmasi yoki gaplar kabi har gal nutqning o'zidagina yuzaga kelmaydi, balki ular, xuddi so'zlar kabi tilda tayyor holda bo'ladi. Shuning uchun iboralarni turg'un birikmalar hisoblaymiz. Chunki ibora tarkibidagi so'zlarni ajratib bo'lmaydi. Ibora gapda bitta so'roqqa javob bo'lib, bitta bo'lak vazifasida keladi. Demak, ibora nutq hodisasi emas, balki til hodisasi hisoblanadi: aravani quruq olib qochmoq, kavushini to'g'rilab qo'ymoq, tomdan tarasha tushganday, kapalagi uchib ketdi kabilar tilda tayyor holdagi birliklardir.

Ibora ko'proq so'zlashuv va badiiy uslubda ishlatiladi. Ulardan unumli foydalanish nutqning ta'sirchanligini oshiradi. Ibora ahamiyati va qo'llanishi jihatidan, odatda, so'zga teng keladi: kapalagi uchib ketdi (cho'chidi), og'zing qani desa qulog'ini ko'rsatadi (lapashang).

Mazmuni bir so'zga teng bo'lgan ibora ayniqsa badiiy publitsistik maqolalarda ko'p uchraydi. Gapning yoki shu o'rinda anglashilgan fikrning emotsionalligini oshirish uchun qo'llanilgan ibora muallifning mahoratini ko'rsatishi tabiiy, albatta. Masalan, "Jahon adabiyoti" jurnalining 2019 yil/3 (262) sonida muallif Ahmadjon Meliboevning "Suvda oqib kelayotgan po'stin" maqolasida bir nechta ibora keltirilgan.

"Nashryotlar inson aqli bovar qilmaydigan yangi qurol turlari, ular vositasida planetalararo bo'lajak urushlarning senariylari, biologik qurollarning kelajagi yangi "ajal" viruslari haqidagi qo'lyozmalarni, taa'bir joiz bo'lsa, ko'zlariga surtib chop etmoqdalar. Balki, bunda ularni to'la ayblash mumkin bo'lmas. Negaki, bugun Rossiya, Evropa va AQSh matbuotida zamonaviy qurol-yarog' mavzusi yetakchilik qilmoqda. Internet tarmoqlarida badiiy



adabiyotning inqirozi, qog‘oz kitobning o‘limi, badiiy janrlarning chippakka chiqqani haqida ko‘p yozilmoqda. “Yoshlar kitobsiz ham cho‘qqini egallashadi”, “Evropa kitobxonlikdan voz kechdi”, “Kitobsiz hayot istiqbollari”, “Kitobxonlik qadriyat emas”, “Badiiy uydurmalar zamoni o‘tdi”, “Tadbirkor yozuvchilarga keng yo‘l” kabi biri ikkinchisidan tashvishli maqolalar ko‘ngilni g‘ashlashi bilan birga, ikkilanish holatini ham yuzaga keltiradi.”²

Yuqoridagi jumlada bir necha o‘rinlarda iboralar keltirilgan. Mazkur iboralardan biri “ko‘zga surtmoq” iborasining mazmuni bitta so‘zga “asramoq”, yoki “avaylash” kabi ma‘nolarga tengdir ammo bu jumlada esa yanada chuqurroq mazmuni yoritgan yani “ulug‘lash” ma‘nosi ham o‘rtaga chiqqan. Keyingi “chippakka chiqmoq” iborasida “keraksizlik” ma‘nosiga teng bo‘lib qolgan bo‘lsa, “ko‘ngil g‘ashlash” iborasi “siqilmoq”, qisman “azoblanmaoq” ma‘nolariga teng. Bu iboralar jumladagi ma‘noni kuchaytirib, mavzuni aniq maqsadi haqidagi fikrlarimizni osonroq ilg‘ab olishimizga ko‘mak beradi.

Ba‘zan og‘zaki so‘zlashuv uslubida ham qo‘llaniladigan iboralar badiiy publisistik uslubda fikrning hissiy ta‘sirchan bo‘lishini, voqea hodisaga muallifning munosabatini obrazli qilib ifodalash uchun qo‘llaniladi. Masalan; “Jahon adabiyoti” jurnalining 2019 yil/ 3 (262) sonida Rahmon Qo‘chqor ning (TDYuU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi) “Ozod Sharafiddinov fenomeni” nomli maqolasi keltirilgan. Maqolada “Chingiz Aytmatov aytgannidek, o‘zi haqidagi bor haqiqatni o‘zi, hayotligida bildirib ketdi. Chunki bu inson uchun odam bolasi, u kim bo‘lishidan qattiy nazar, dunyoga

² Ahmadjon Meliboevning “Suvda oqib kelayotgan po‘stin” maqolasi



“o‘tkazib qo‘ygan joyi yo‘qligini “ bilmog‘i va tan olmog‘i, jamiki xatti-harakatini shu haqiqatdan kelib chiqib amalga oshirmog‘i lozim edi.”³

Ibora juda ajoyib va o‘rnida qo‘llangan, agarda bu yerda iborani olib tashlasak yoki jumlaning iborasiz qo‘llasak muallif ifodalamoqchi bo‘lgan voqea-hodisaning obrazlilik, tafakkur olamining kengligi aks etmay qoladi, demak ba‘zan og‘zaki so‘zlashuv uslubida qo‘llaniladigan iboralarni ham badiiy publitsistik uslubda maqsadli ravishda qo‘llasa bo‘ladi.

Iboralar ko‘chma ma‘no ifodalaydi va ta‘sirchanlikka, obrazlilikka ega bo‘ladi. Masalan, qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan iborasani o‘qigan odam o‘t yeb turgan qo‘y, uning og‘zidagi cho‘p kabi timsollarni ko‘z oldiga keltiradi. Yuvosh so‘zida esa bu kabi xususiyatlar yo‘q. Bunga “Ishonch” gazetasining 2019 yil 7 noyabr sonida bosilgan Bahodir Karimov (filologiya fanlari doktori, professor) ning “So‘z so‘zlashda ... andisha kerak” maqolasida keltirilgan jummalarni misol qilib keltirish mumkin.

“Bunday mulohazalar Abdulla Qodiriyning nomi oqlanayotgan 60-yillar arafasida ham, qatiqni puflab ichayotgan ziyolilar masalaning mafkuraviy tomoniga nihoyatda ehtiyot bo‘lib yondashgani holda “har ikki romanning tili boy, sodda va badiiy jihatdan yuksak bo‘lishi bilan, avtorning mohirligi bilan katta so‘z san‘atkorligidan darak berar edi” (S.Abdulla fikri) kabi qarashlarni bayon qildi.”⁴

Bu o‘rinda “qatiqni puflab ichmoq” iborasi orqali juda ehtiyotkorlik bilan ish qilmoq, yani ehtiyotkorlikning eng yuqori darajada ekanligi tushuntirilgan. Ibora orqali muallif nafaqat ziyolilarning hayotini, balki butun bir davrni, shu zamonning taxlikali holatini ham ko‘rsatib bergan. Albatta, paremeologik birliklarning o‘z o‘rnida qo‘llanilishi, matn tarkibida jumlagam mos ishlatilishi muallifning qanchalik kuchli mutaxassis ekanligini ko‘rsatadi.

³ Rahmon Qo‘chqor ning (TDYuU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi) “Ozod Sharafiddinov fenomeni” maqolasi

⁴ Bahodir KARIMOV ning “So‘z so‘zlashda ... andisha kerak” maqolasi



Ammo o‘rinsiz ishlatilishi yoki qo‘l uchida qilingan ishlar, yozilgan maqolalar ham yo‘q emas.

Maqolalar tarkibida qo‘llangan iboralar mavzuning ochilishiga katta yordam beradi, ba‘zan biz ibora, maqol, tasviriy ifodalar orqali gap yoki jumlagi tag ma‘no berishimiz ham mumkin. Bu orqali aytilmoqchi bo‘lgan fikrning noto‘g‘ri tushuncha berishiga monelik qilishimiz yoki o‘sha fikrni bo‘rttirishimiz ham mumkin. Ayrim iboralar tarkibiga boshqa so‘zlarni kiritish yoki tarkibidagi so‘zlarni o‘zgartirishimiz ham mumkin. Birikmalargina emas, ayrim gaplar ham ibora holiga kelib qolishi mumkin: ishtahasi ochildi, dili siyoh bo‘ldi. Iboralar gap tarkibida yaxlit ko‘rinishda bitta so‘roqqa javob bo‘ladi va bitta gap bo‘lagi vazifasini bajaradi. Misol uchun: yulduzni benarvon uradigan (yigit)- qanday (yigit)?. Iboralarning barchasi ko‘chma ma‘no ifodalaydi va ularda emotsionallik so‘zga nisbatan kuchli bo‘ladi. Shuning uchun iboralar nutqning ifodalaligini va ta‘sirchanligini oshiradi.

Demak , har qanday ibora yoki maqollarni o‘z ishimizda ma‘nosiga e‘tibor qilgan holda keltirsak biz maqolani chuqurroq yuzaga chiqishini, tasirchan va obrazli bo‘lishini taminlaymiz. Bu esa milliylikni, xalqimizning kuchli salohiyati-yu bilimini namoyish etishi bilan yanada maqolaga yoki ijod mahsuliga ko‘rk bag‘ishlaydi. Paremeologik birliklar zakovotli insonlarni so‘zga chechanligini oshiradi va milliy tilni saqlab qolishda eng asosiy o‘rinlarda turadi.



Adabiyotlar ro'yxati

1. S.J.Xamroxonova "O'zbek tilidagi iboralar tizimini o'rganishning nazariy muammolari" maqolasi
2. Ahmadjon Meliboevning "Suvda oqib kelayotgan po'stin" maqolasi
3. Rahmon Qo'chqor ning (TDYuU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi) "Ozod Sharafiddinov fenomeni" maqolasi
4. Bahodir Karimovning "So'z so'zlashda ... andisha kerak" maqolasi
5. Sh. Rahmatullayev "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (O'qituvchi- 2006)